



Ma'rifat ALIMQULOVA,

Tayanch doktorant, O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: mb19941408@gmail.com ORCID ID: 0009-0008-2846-4831

Filol.f.d., prof. Q. Pardayev taqrizi asosida

### MAMATQUL HAZRATQULOV IJODIDA MUHABBAT MAVZUSINING BADIY TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining vakili Mamatqul Hazratqulov qissalarida yoshlar muhabbati va uni shakllantiruvchi ijtimoiy muhit masalasi talqin qilingan. Jumladan, adibning "Eshiklar ochiq", "Intizor", "Ko'kko'l" hamda "Chiroq o'chmagan kecha" qissalaridagi sevgi munosabatlari, qahramonlarning ichki kechinmalari, ularning muhabbat yo'lidagi iztiroblari tahlil qilinib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** muhabbat mavzusi, yoshlar obrazi, ijtimoiy muhit, sevgi uchburchagi, psixologik tahlil, qissa janri, badiiy talqin.

### THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE THEME OF LOVE IN THE WORKS OF MAMATKUL HAZRATKULOV

Annotation

This article analyzes, from an artistic and aesthetic perspective, the theme of youth love and the social environment shaping it in the stories of contemporary Uzbek writer Mamatqul Hazratqulov. The study examines the love relationships, inner experiences, and emotional struggles of the characters in the stories "Eshiklar ochiq", "Intizor", "Ko'kko'l", and "Chiroq o'chmagan kecha".

**Keywords:** theme of love, youth characters, social environment, love triangle, psychological analysis, short story genre, artistic interpretation.

### ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ТЕМЫ ЛЮБВИ В ТВОРЧЕСТВЕ МАМАТАКУЛА ХАЗРАТКУЛОВА

Аннотация

В данной статье с художественно-эстетической точки зрения анализируется тема юношеской любви и социальная среда, формирующая её, в рассказах современного узбекского писателя Маматакула Хазраткулова. В исследовании рассматриваются любовные отношения, внутренние переживания и эмоциональные страдания героев в рассказах "Eshiklar ochiq", "Intizor", "Ko'kko'l" и "Chiroq o'chmagan kecha".

**Ключевые слова:** тема любви, образы молодежи, социальная среда, любовный треугольник, психологический анализ, жанр рассказа, художественная интерпретация.

**Kirish.** Muhabbat mavzusi o'zbek adabiyotida abadiy va azaliy mavzulardan hisoblanadi. Aytish joizki, o'zbek adabiyotida muhabbat mavzusi qalamga olingan asarlar talaygina bo'lib, ko'plab ijodkorlar ushbu mavzuni turli badiiy shakllarda yoritganini ta'kidlash kerak. Abdulla Qahhorning "Muhabbat", O.Yoqubovning "Matluba", "Qanot juft bo'ladi", U.Nazarovning "G'ubor", "Kunlar", O'.Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" kabi qissa va romanlarda aynan yosh o'smirlarning qaynoq va jo'shqin muhabbati tasvirlanadi. "Sevgi kuchiga har qanday yoshdagi kishilar ham tobe esalar-da, ko'pincha bu go'zal tuyg'u yoshlikka xosdir" [1].

Mamatqul Hazratqulovning qissalaridagi qahramonlarning aksariyati yoshi o'n sakkizdan yigirma yoshgacha bo'lgan o'smirlarni tashkil etadi. Bu yoshlarning ko'pchiligi mustaqil hayotga endigina qadam qo'yayotgan, ma'naviy va ruhiy jihatdan to'la yetilmagan, ba'zida esa o'z muhabbatini hayotdagi barcha muammolardan ustun qo'yadigan insonlardir. Ular muhabbat va his-tuyg'ular to'loqida, shiddatli hayotiy vaziyatlar orolig'ida sayr qilayotgan yoshlar sifatida tasvirlangan. O'zbekiston Qahramoni I.G'ofurov ta'kidlaganidek: "Aslini olganda, yoshlarning sevgi-muhabbati haqida yozish- bu ularning qalb qa'riga nazar tashlash, ularni hayajonga solgan, tashlayotgan qadamlarida yo'llanma bo'lgan ma'naviy omillarni ko'zdan kechirish demakdir" [2]. Aytish kerakki, Mamatqul Hazratqulov ham o'z asarlarida qahramonlarining qalbini tinglay olgan, ularning hissiyotlarini esa adashmay boshqarib boraolgan mahoratli ijodkorlardandir. Yozuvchining o'zi tug'ilib o'sgan ona diyori Samarqandga bo'lgan mehr-u muhabbati shu qadar yuksakki, bu tuyg'u uning asarlarini, xususan qahramonlarini ham chetlab o'tmagan. Ya'ni asar qahramonlaridan, "Eshiklar ochiq", "Chiroq o'chmagan kecha"

qissalaridagi bosh qahramonlar Sa'dulla va Temir obrazlari ham muallif bilan ayni joyda tug'ilgan yigitlardir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbek adabiyotshunosligida qissa janri doimo tadqiqotchilar e'tibor markazida bo'lib kelgan. Mazkur janrning shakllanishi, mavzu doirasi, obrazlar tizimi, syujet qurilishi va uslubiy xususiyatlari kabi masalalar bo'yicha bir qator muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'zbek adabiyotshunoslari I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharofiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, S.Mirvaliyev, B.Sarimsoqov, A.Abrorov, A.Rasulov, A.Ulug'ov, A.Qozixojayev, U.Rasulova va S.Rasulovalar o'z tadqiqotlarida qissa janri haqida ilmiy-nazariy xulosalar chiqargan.

Biroq, Mamatqul Hazratqulov ijodi va uning aynan qissa janri doirasidagi poetik xususiyatlari, uslubiy yondashuvi, syujet qurilishi, obrazlar tizimi va estetik qarashlari alohida tadqiqot obyekt sifatida kompleks yondashuvda hozirgacha to'liq va tizimli o'rganilmagan. Holbuki, ayrim adabiyotshunos olimlarning adib kitoblariga yozgan so'zboshi va maqolalarini keltirish mumkin. Jumladan, Nurboy Jabborov adibning "Qirg'oqsiz daryolar" kitobiga yozgan "Adabiyot va san'at daryolari haqida qo'shiq" maqola, Mashrab Boboyevning "Nafis tuyg'ular olami" 2002-yilda nashr qilingan "Chiroq o'chmagan kecha" kitobiga yozilgan so'zboshi va Halim Saidovning "Hurriyat to'loqlari tavsifi" maqolalarida adibning ijodi va yuksak salohiyati haqida samimiy fikrlar bildirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Har bir ijodkorning o'z ijod olami, badiiy konsepsiyasi, o'ziga xos badiiy olami bor. Adabiyotshunos Tal'at Solihov ta'biri bilan aytganda: "Har bir san'atkorning o'z mamlakati bo'ladi va shu mamlakatda yashaydigan, istiqomat qiladigan o'z fuqarolari bo'ladi" Mamatqul Hazratqulov ham badiiy nasrda xususan qissa janrida salmoqli

asarlar yaratgan mahoratli hamda o'z ijodiy uslubiga ega adibdir. Jumladan, adabiyotshunos Nurboiy Jabborov muallif ifoda uslubining individualligi haqida shunday fikr bildiradi: "Mamatqul Hazratqulovning fikrni ifodalash uslubi hech bir ijodkorni takrorlamaydi. Adib uslubi badiiy tasvir vositalarining san'atkorona qo'llanishi, ijodiy va ilmiy tafakkur sintezi asosiga qurilgani, so'z, jumla va gaplarning xuddi qo'shiq kabi muayyan ohangda tabiiy va ravon ifodalangani kabi jihatlar bilan alohida ajralib turadi" [3].

"Mamatqul aka rassomga xos sinchkov nigoh va ko'rganlarini so'z orqali obrazli ifodalash mahorati baland ijodkor. Bu hol qahramonlar qiyofasi tasvirida ayniqsa yaqqol ko'rinadi". Adibning "Eshiklar ochiq", "Intizor", "Ko'kko'l" va "Chiroq o'chmagan kecha" qissalaridagi yoshlarning sevgi munosabatlari, ularning ruhiy va ichki kechinmalari, hayotiy qaror va iztiroblari adabiy-tahliliy metodlar orqali asarlardagi obrazlar, syujetlar, muhit va badiiy vositalarning o'zaro bog'liqligi aniqlangan.

**Tahlil va natijalar.** Mamatqul Hazratqulovning "Eshiklar ochiq" qissasida muhabbat masalasi markaziy o'rin egallaydi. Asarda Sa'dulla, Salima, Feruza obrazlari orqali yoshlar o'rtasidagi tuyg'ular, ularning ichki kechinmalari hamda ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan ziddiyatlar tasvirlanadi. Xususan, ijtimoiy tabaqalanish muhabbatning fojeali yakun topishiga sabab bo'luvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Muallif ushbu jarayonlarni badiiy jihatdan asosli va ishonarli tarzda ifodalaydi.

Asar bosh qahramoni Sa'dulla umumlashma obraz. U ilm qilaman, ziyoli bo'laman deb o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'ini tashlab, o'z kelajagini qurish maqsadida shaharlarga kelib yashaydigan qatlamning timsoli. Bunday obrazlar adabiyotda ko'plab uchraydi. Jumladan, muallifga zamondosh yozuvchi Mashrab Boboyevning "Tuproq hidi" [4] hikoyasi qahramoni Ahmadbek ham dissertatsiya yozaman deb ilm yo'lini tanlaydi, taqdirini shahar bilan bog'laydi. U ham Sa'dulla kabi shaharlik qizga uylanadi, birgalikda mehnat qilib turmush qiyinchiliklarini yengib borishadi.

Sa'dulla qishlog'idagi Salima ismli sodda, oqko'ngil qizga ko'ngil qo'yadi. O'qish tugagach yozgi ta'tilga qaytgan Sa'dulla Salimaning turmushga chiqayotgan xabarini opasi Zarbuvidan eshitib gangib qoladi. Muhabbatning sirli va ehtirosli to'liqida suzib yurgan ikkala yoshning samimiy tuyg'ulari yakun topishida raisning o'g'li Xolmatning unga uylanishi hamda Sa'dullaning sevgi iztirobiga ijtimoiy tabaqalashuv sababli ekanligi ayniqsa do'sti Choriga aytgan nutqida ko'rinadi: "...undan keyin men bir kolxozchining o'g'liman, Xolmatning otasi rais" [5].

Sevgi iztirobidan xomushlangan Sadulla o'zi sevib mutolaa qiladigan kitob - Indoneziya yozuvchisi Marax Ruslining "Sevgi fojiasi" romani bilan tanishadi. Undagi Sutan Mahmudning fikrlari, jumladan: "...O'zim sevsam, u ham meni sevsam, har qanaqa qizga uylanishim mumkin. Uning nasl-nasabi qanaqa, o'zi chiroylimi yo'qmi, boymi, kambag'almi, menga baribir..." [6] Sadullaning keyingi hayotiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Kursdoshi Feruza, zaministrning yagona qizi bo'lishiga qaramay, Sadullaning e'tiborini qozonadi va u bilan turmush quradi. Yozuvchi Feruza obrazini ijobiy, ideal sifatlarda quyidagicha tasvirlaydi: aqlli, esli, hushli, mustaqil qarorli; shuningdek, boy oilaga mansub bo'lishiga qaramay, kamtarin va samimiy. Turmush boshlanishi bilan qahramonlar hayotning haqiqiy murakkabliklari bilan yuzlashadi. Ular majburiyatlar bilan to'la hayot o'rniga, qiyinchiliklarga to'la, lekin erkin hayotni tanlaydilar. Asarda yoshlarning matonati, iroda va sabri hayotiy to'siqlarni yengib, oxir-oqibat barcha imkoniyatlar ochilishiga olib keladi.

Shuningdek, Sadulla, Salima va Feruza sevgi uchligining qalb kechinmalari va ichki iztiroblari ijtimoiy muammolar qa'tiga singdirib yuboriladi. Zotan: "Sevgi original va kuchli g'oyalar, kurashchan ruh bilan sug'orilgandagina hayotbaxsh bo'la oladi" [7].

Muallifning "Intizor" qissasida ham xuddi shunga o'xshash sevgi manzaralarini mushohada qilamiz. "Boshiga sevgi savdosi tushgan odam xayolchan bo'lib qolarkan. Hozir Zafarni o'ylashga majbur etgan ham sevgi. U Noilani sevadi. Noilachi? U

ham sevdimi?.." [8] kabi savollar asar bosh qahramoni yosh va o'spirin yigit Zafarning xayollarini band qilish bilan boshlanadi. Ushbu qissada ham muallif sevgi uchburchagini yasaydi: Zafar, Noila va Sanam. Maktabda birga ishlaydigan hamkasbi Noila ismli juvon bilan tanishadi. Noila chiroyli, aqlli, xayoli va iboli ayol. Biroq turmush uni o'z qozonida bir jizg'anak qilib qovurib olgan. Noilaning birinchi eri hadeganda tergar, o'larday kunchi, o'tirsa o'poq, tursa so'poq, deb haqorat qilardi. Noila bor dardini ichiga yutib yashar edi. Uning bu kuni ham ortiqchalik qildi. Eri zotiljam kasaliga muhtalo bo'lib vafot etadi.

Noilani hayotga qaytargan, unga yanada yashashga mehr uyg'otgan aynan Zafarga bo'lgan tuyg'usi edi. "... bu istarasi issiq yigit Noilaning ko'zini ochganday, loyqalagan fikrlarini tindirganday bo'ldi" [9]. Biroq ularning munosabatlariga Noilaning o'g'ilchasi Rashidning o'z otasini kutayotgan umidi to'sqinlik qildi.

Kutubxonachi qiz Sanam ham Zafarni beg'ubor bir sevgi bilan sevadi. Garchi Zafarning Noilaga bo'lgan munosabatini bilsada, o'z tuyg'ularida sobit turadi, oxirigacha kurashadi. Muallif uning irodasi, matonati mahorat bilan tasvirlaydi. Qissa so'ngida esa Sanamning Zafarga "Axir siz boshqani sevasizku?-degan savoliga undan "Sanam!"- degan kuchli xitobni eshitadi. Holbuki, Zafarning birgina ushbu xitobi asarga oydinlik kiritadi. Kitobxonga esa qahramonlarning visolidan darak beradi.

Mamatqul Hazratqulov asarlari ichida chinakam sevgi tarannum etilgan qissa bu "Ko'kko'l" bo'lib, muallif unda qahramonlarning bir-biridan iztirobli sevgi hissiyotlarini qiziqarli va hayajonli uslubda tasvirlaydi.

Qissaning bosh qahramoni yosh va navqiron o'zbek jurnalist yigiti Botir-kasbi taqozosi va dam olish niyatida Ozarbayjon hamda Sochiga yo'l oladi. Safar davomida u mashhur ozarbayjonlik rassom Jalil Jamalzoda va uning "qizi" Gulginaxonim bilan tanishadi. Asl voqealar ham aynan shu uchrashuvdan boshlanadi. Rassomning "qizi" deganimiz Gulginaxonim esa aslida rassomning ikkinchi xotini edi. Asar boshida Botirga qo'shilib kitobxon ham uni rassomning qizi deb o'ylashi tabiiy. Chunki ular ilk uchrashuvlarida Jalil Jamalzoda Gulginani qizim deb tanishtirgan, qiz ham unga "otam" deb murojaat qilgan edi. Gulginaga chinakam oshiq bo'lgan Botir avvaliga unga bo'lgan tuyg'ularini qalbida yashirin saqlaydi.

Asarning so'ngigiga qadar davom etgan bunday munosabat nihoyat Botirning Gulginaxonimga sevgi izhoridan so'ng fosh bo'ladi. Bu achchiq haqiqat oshiqning qalbida ma'naviy portlashni yuzaga keltirdi. Qahramon psixologiyasini yozuvchi o'tli, hayajonli tasvirlarda shunday ifodalaydi: "Botirni ilon chaqqanday sapchib turib ketdi. Yuragi gupillab ura boshladi. Tili kalimaga kelmay, boshi g'uvilladi. Butun badanidagi qon boshiga yig'ilib bog'anday sezdi o'zini" [10]. Zeroki, Jalil Jamalzodaning sobiq turmush o'rtog'i Madinaxonimning jamiiki xislatlarini Gulginadan topganligi, xotining vafotidan keyin o'chgan hayot chirog'ini qayta yoqqanligi va so'ngan ilhomini qayta alangalatgani haqidagi so'zlari Botirning qulog'iga kirmas edi.

"Yo falak! Bu ne sinoat! Qizim deb yurgani xotini chiqsa! Xotinini qizim deb tanittirsa! Iste'dodiga tasanno o'qib yurgani mana bu odam kim o'zi? Nega uni shuncha vaqt laqillatdi?!" [11] kabi so'roq va xitoblarni baralla aytishga Botirning madori yetmadi. Tabiiyki, bu so'roqlar o'qirmanning ham xayolidan o'tadi va uni ham hayajonga soladi. Bu esa o'z o'mida yozuvchining ijodiy yutug'i va tasvir mahoratidir.

Muallif ijodini boyitib turgan asarlardan yana biri "Chiroq o'chmagan kecha" qissasi bo'lib, unda o'tgan asrda yuz bergan Afg'on urushi va uning fojiaiy oqibatlarini badiiy ifoda etiladi. Yozuvchi asarda garchi urush mavzusini va manzaralarini asosiy o'rinda tasvirlagan bo'lsada, asarning mohiyatini chinakam ona yurt, ota-ona, sevikli yor, sadoqatli do'stlar muhabbati asosiga quradi.

Qissaning bosh qahramoni Temir - oliygohning ikkinchi kursida tahsil olayotgan samarqandlik yigit bo'lib, u do'stlari: Azim, Jo'raqul, Nosirlar bilan birga Vatan, yigitlik oldidagi burchini ado etish uchun Turkmanistonga xizmatga yuboriladi, keyinchalik esa Afg'onistonga olib ketiladi. Asar voqealari

O'zbekiston, Turkmaniston va Afg'oniston hududlarida rivojlanadi.

Temir Gavhar ismli talaba qizga ko'ngil qo'yadi. Ularning bir-biriga bo'lgan samimiy tuyg'ulari asarga alohida bo'lim sifatida badiiy va uslubiy rang-baranglik kiritgan. Temirning sevgilisi Gavhar garchi asarning harakat dinamikasida faol ishtirok etmasada, lekin Temirga yo'llagan maktublari orqali uning qalb olami, ma'naviyati va axloqiy pozitsiyasi alohida ochib berilgan. Bu xatlar Temirga ruhiy madad bo'lib xizmat qiladi. Gavharning haqiqiy o'zbek qizlariga mos samimiyligi, o'z sevgisiga sodiq va vafodorligi asar so'ngida Temirni ikki yillarki iztirobga solgan o'y-xayollaridan butkul voz kechishida namoyon bo'ladi. Ya'ni Gavhar sevgisini avvalgidek, sof va samimiy saqlab qolgan edi. O'lim dahshati har soniyada soya solib turgan urush maydonlarida Temirga yashashga va tiriklikka umid bergan yagona kuch ham aynan Gavharning unga bo'lgan muhabbati edi. Aslida, bu ikki sevishganning qalbida o'chmagan va bir umrga yonib turguvchi chiroq edi.

**Xulosa va takliflar.** Mamatqul Hazratqulovning qahramonlari juda samimiy, irodali va olijanob yoshlardir. Ular hayoti davomida qattiq ruhiy kechinmalar, ajralishlar, kutilmagan uchrashuvlar, kutilmagan tasodiflar, oilaviy ro'shnoliklar va nihoyat visol baxtini totgan yosh navqiron kelajak avlodlardir. Qahramonlarining hissiyotlarini adashmay boshqaraolganligi, ularning dard-u iztiroblarini yuksak pafosda ifoda etolganligi yozuvchining yuksak mahoratidandir.

Mamatqul Hazratqulovning sevgi qissalari o'quvchini qahramonlarning ichki kechinmalari va ularning muhabbat yo'lidagi iztiroblari bilan tanishtirib, tafakkur va tuyg'ular uyg'unligida fikrlashga undaydi. Shu bois, Hazratqulovning sevgi qissalari chinakam badiiy salohiyatga ega bo'lib, ularning ma'naviy va estetik qadri zamonlar osha kitobxonlar ma'naviyatini yuksaltirishga va ma'naviy kamolotini o'stirishga xizmat qiladi. Shu sababdan zamonlar osha o'quvchi qalbu shu'urida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Boboyev M. Tuproq hidi. Kitob dunyosi, 2013-yil 13-fevral 3-son
2. Hazratqulov M. Qizil va yashil. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.178-b
3. Ҳазратқулов М. Гладиолус– Тошкент: АДАБИЙОТ 2022. – 496 б.
4. Jabborov N. Adabiyot va san'at daryolari haqida qo'shiq. Maqola. 2025
5. Qayumov A. Qissalarda sevgi dostoni. – T.: Yozuvchi nashriyoti, 1996. 25-b.
6. G'ofurov I. Adabiyot dunyosi: Joziba. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2022 447-453-b.